

# LUQMON BO'RIXON NASRIDA XRONOTOPIK STRUKTURA

**Ruzieva O'g'ilnor Egamberdiyevna**

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: 998 97 772 14 03

E-mail: u.ruzieva2909@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22827678>

Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 17-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-sentabr 2026-yil

## Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan vakili Luqmon Bo'rixon asarlaridagi badiiy xronotop va makon poetikasi tadqiq etiladi. Maqolada adibning roman, qissa va hikoyalarida Kengsoy qishlog'i, 41-sovxozi hududining yagona tayanch badiiy topos sifatidagi kompozitsion va g'oyaviy-estetik vazifalari tahlil qilingan.

## Kalit so'zlar:

Luqmon Bo'rixon nasri, badiiy xronotop, makon poetikasi, Kengsoy toposi, 41-sovxozi, sayyor obrazlar, obrazlar migratsiyasi, peyzaj, interyer, badiiy psixologizm.

Adabiyotshunoslikda badiiy voqelik kechadigan va obrazlar harakatlanadigan hududga nisbatan badiiy makon yoki xronotop atamasi qo'llaniladi. Mazkur makon tasviri peyzaj, portret va interyer kabi poetik unsurlar bilan uzviy bog'lanib, asarning yaxlit badiiy olamini shakllantiradi. Xronotop nazariyasini XX asrning 30- yillarida Mixail Baxtin (1895-1975) adabiyotshunoslikka olib kirdi. Bu atama aniq fanlar doirasida hamda psixologiya fanida mavjud bo'lsa-da, olim xronotop poetikasi, xronotop shakllari istilohlarini adabiyotga joriy qildi. Adabiyotshunos U. Jo'raqulov "Lison ut-tayr", "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", "O'tkan kunlar" asarlari misolida xronotop tushunchasini o'rganar ekan, bu atamaga shunday ta'rif beradi: "Bu istiloh lug'aviy jihatdan zamon-makon degan qo'shma ma'noni ifodalaydi. Xronotop badiiy asarning botiniy funksiyasini ta'min etadigan, muayyan makon o'zani bo'ylab harakatlanuvchi zamon oqimi demakdir. Badiiy asardagi har qanday zamon yoki makon o'z-o'zicha hech narsani anglatmaydi, harakatlanmaydi. Qachonki, inson hayoti, insonga xos so'z - harakatlar u bilan uyg'unlashsa, badiiy xronotop jonlanadi, asar botini bo'ylab oqa boshlaydi" [1,136-137]. U.Jo'raqulov tadqiqot ishlarida yo'l xronotopi, shahar xronotopi, mehmonxona xronotopi, sahro xronotopi, ko'cha xronotopi, uy, oston xronotopi kabi tushunchalarga to'xtalgan.

Zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos o'rin egallagan yozuvchi Luqmon Bo'rixon asarlarida xronotop masalasi o'ziga xos badiiy-estetik talqin kasb etadi. Adib o'zining qator asarlarida Kengsoy, xususan, 41-sovxozi hududini doimiy badiiy toposga aylantirib, ushbu makonga xos murakkab xarakterlar va tiplar silsilasini yaratadi. Bunday doimiy makon va qahramonlar ruhiyati mutanosibligi boshqa adiblar ijodida kamdan-kam uchraydigan o'ziga xos hodisadir. Badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazlar biror bir davrning, muhitning va joyning aniq vakili hisoblanadi. Bu kategoriya badiiy poetikaning muhim aspekti, chunki zamon va makonning mavhumligi, noaniqligi tabiiylikka, hayotiylikka putur yetkazib, o'qirmanning ishonchiga sazovor bo'lolmasligi mumkin.

Xronotop – makon va zamon uyg'unligi masalasi lirik asarlarda unchalik ahamiyatga ega bo'lmasa-da, epik va dramatik asarlarda muhim element sanaladi. Hayotiy voqelik, ma'lumki, badiiy asarning muhim resursi hisoblanadi, voqelikning nafaqat syujet sifatida ketma-ketligi,

balki juda kichik bir voqelik ham qandaydir zamonda, qandaydir aniq makonda sodir bo'ladi. Badiiy asar xronotopi o'qirman tasavvurida hayotiy model paydo bo'lib, anglanish darajasining yuqorilashuviga yordam beradi. Chunki asarda tasvirlanayotgan detalning ko'lami, joylashish tartibi, voqea hodisalarning ketma-ketligi muayyan makonda va zamonda sodir bo'ladi. Ijod jarayonida obrazlar va voqealar bog'lanishi, makon va zamonning harakat birligi ta'minlanishi muhim shartlardan biridir. Luqmon Bo'rixon voqealarni o'qirman ko'z o'ngida tasvirlar ekan, badiiy makon va zamon konsepsiyasida tasvirlash, anglash, idrok etish borasida individual uslub qo'llaganiga guvoh bo'lamiz. Ijodkor aksariyat asarlarida Kengsoy qishlog'i (41-sovxo)z) timsolida o'ziga xos maishiy va ruhiy makon yaratadi hamda voqealar rivojini aynan shu topos bilan bog'laydi. Bu makromakondagi badiiy obrazlar xatti-harakati orqali esa ijodkor o'zining yetakchi konsepsiyasini, estetik idealini ilgari suradi – ruhiy murakkabliklarni, obrazlararo ziddiyatlarni, voqeyi jumboqlarni aniq o'lchamlarga ega bo'lgan xronotop chegarasida tasvirlaydi. Badiiy xronotopning makon komponenti matnda turli sathlarda namoyon bo'ladi. Asar ekspozitsiyasida makoniy koordinatalar va dastlabki vaziyat belgilab berilib, u harakatlar rivoji uchun zamin vazifasini o'taydi. Yopiq va ichki makonni tasvirlashda esa interyer atamasi qo'llanilib, u nafaqat voqealar kechadigan bino yoki xona muhitini, balki qahramonning ruhiy-maishiy olamini ham aks ettiradi. Luqmon Bo'rixon badiiy asarlaridagi obrazlar aksariyat hollarda Kengsoy qishlog'ida, ya'ni 41-sovxo)zda harakat qiladi, yoki aynan shu makonga mansub bo'ladi. Bu holatni asarlar misolida ko'rib chiqamiz:

–**“Cho'ldan kelgan tashvish” hikoyasidan:** “Janob Do'lanov deganlari o'sha ma'lum-u mashhur cho'l qo'ynidagi **41-posyolkada** tug'ilib o'sgan o'zimizning Samad – Do'lanov Samad, Samad Ergash o'g'li” [2, 8]. Bu o'rinda matnda muayyan obrazning portret tasviri va ijtimoiy-maishiy mansubligi yoritilar ekan, muallif uning kelib chiqishiga alohida to'xtalib, qahramonning asl ildizlari Kengsoy qishlog'iga borib taqalishini ta'kidlaydi. Bu orqali yozuvchi obrazning ruhiy-ma'naviy qiyofasini uning tug'ilib o'sgan geografik va ijtimoiy muhiti bilan uzviy bog'liqlikda tasvirlaydi.

–**“Tokchadagi tumor” hikoyasida makon tasviri:** “Ko'p o'tmay **Kengsoy** dala-dashti, baland-past qir-tepaliklar ko'zga tashlanib qoldi... To'lqinning tan-u joniga totli titroq kirdi. Yuragi gurs-gurs ura ketdi” [3, 355]. Ushbu hikoyada ham muallifning doimiy tasvir makoni – Kengsoy qishlog'i asarning tayanch xronotopik birligi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif bu lokatsiyani peyzaj tasvirlari bilan uyg'unlashtirgan holda tasvirlashi badiiy makonning asar g'oyaviy-emotsional ruhini shakllantirishdagi kompozitsion va semantik funksiyasini kuchaytirganini ko'rish mumkin.

–**Luqmon Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida makon tasviri quyidagicha beriladi:** “Qishlog'imiz, to'g'rirog'i, **41-sovxo)zga qarashli posyolka**, uzoqdan qaraganda, paxta paykallari o'rtasiga to'kib tashlangan tosh-shag'al, temir-tersak uyumiga o'xshab ko'rinadi. Ilgari bu yerlar yovshonzor cho'l-u biyobon bo'lgan. Zamonlar o'tib hukumat “oq oltin” dardida olisyaqindagi daryolarni jilovlab, katta ariqlar qazdirib bu yerlarga suv keltirgan. Posyolka deganlari andakkina shahar mahallalarining nuqsi urgan qator-qator beton uy-joylar, tosh-shag'al to'shalgan ariqlar-u beton yo'l-yo'laklardan iborat bir qishloq” [4, 8]. Romanda muallif g'oyaviy niyatini ro'yobga chiqarishda ushbu asarlararo takrorlanuvchi doimiy makon, ya'ni 41-sovxo)z xronotopi muhim o'rin tutadi. Asar sarlavhasi kitobxonda dastlab cho'l o'zlashtirgan “zamon qahramonlari” va ularning mehnat jasorati haqida hikoya qilinadi degan tasavvur uyg'otadi. Biroq adib an'anaviy pafosdan qochib, mutloqo o'ziga xos konseptual yo'lni tanlaydi: u tog'li bog'rog'larini tashlab, sun'iy majburiyatlar sabab cho'lga ko'chirilgan insonlarning ma'naviy-ruhiy inqirozini, ya'ni ma'nan “sho'rlanish” jarayonini qalamga oladi. Muallif bu ijtimoiy-ruhiy evrilishlarni kinoyaviy tasvir usuli orqali ochib berib, qahramonlarning botiniy dunyosi va kechinmalarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratadi.

–**“Quyosh hali botmagan” qissasida joy tasviri:** hikoyachi qahramon Norsoat tilidan voqealar tizimi ro'y beradigan makon-xronotop quyidagicha tasvirlanadi: “Chor atrof bepoyon dala-dasht. Ekin paykallari uzoq-uzoqlarga yastanib ketgan. Nari-beri kovlangan zovur ichlarida, suv ko'llagan soyliklarda quyuq o'siq qamishzorlar, yulg'unzorlar daydi dasht shamolida vahimali shitirlab chayqalib turadi. Tog' etagidagi bog'rog'lar ko'zimga singib ketganidanmi, har nechuk, unda-munda hurpaygan yakkam-dukkan qandaydir dov-daraxtlarni hisoblamaganda

bu yerlar anchayin yupun-yalang'och tuyilardi. Ellik-oltmish xo'jalikka mo'ljallab qurilgan, barchasi bir-biriga o'xshash beton kottejlardan iborat posyolka rasmiy hujjatlarda **"41-sovxo"** deb yuritilsa-da, bir chekkasi mashhur **Kengsoy kengliklariga** tutashib ketgani uchun ham ko'pchilik uni Kengsoy qishlog'i deb atardi" [3, 58]. Qissada otasi vafotidan keyin bolaligida Kengsoyga ko'chib kelgan Norsoat, uning eng yaqin do'sti Davron va jingalaksoch Tanzila o'rtasidagi munosabatlar, or-nomus masalasi yoritib berilgan.

–**"Sirli muallim"** qissasida **makon tasviri**: "Ha, ha kaminaga u taraflar tuzukkina tanish. Roppa-rosa ikki yil avval ovloq cho'l qo'ynidagi o'sha xarobgina **41-posyolkada** bo'lganman... Posyolkaning sertuproq, qing'ir-qiyshiq ko'chalarida odam siyrak. U yer-bu yerda o'zini chuvoqda toblab o'tirgan qari-qartanglar, qiy-chuv bilan o'ynashayotgan bolakaylar ko'zga tashlanadi. Hoynahoy, hamma ko'klam tashvishlari bilan andarmon, dala-dashtga sochilib ketgan" [5, 204-205]. Ko'rinadiki, Luqmon Bo'rixon o'zining bir qator asarlarida unifikatsiyalashgan (yagona) badiiy makon konsepsiyasidan unumli foydalanadi. Yozuvchi turli qissalar va romanlarida qahramonlar harakatini yagona geografik-emotsional markaz (xronotop) doirasida birlashtirish orqali o'zaro tutash badiiy olamni shakllantiradi.

–**"Xizr ko'rgan yigit"** qissasida **makon tasviri**: "Xayol sursam xayollarim **Kengsoyning** qir-adirlaridan nariga o'tolmaydi, qo'y-qo'zilar suruviga aralashib yalangliklarda o'tlab qoladi... **Kengsoyning** qoq beliga yetganimizda qorong'ulik xiyla quyuqlashib qolgan edi" [3, 208].

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, muallif Kengsoy xronotopida 41-posyolkada ulkan insoniy tuyg'ularni, turli xil fojia va sevinchlarni, xilma-xil taqdiralar ansamblini yaratadi. Bu makonda tasvirlangan obrazlar o'qirman tomonidan jonli odamlar, insoniy tuyg'ularga, kechinma va taqdirarga ega bo'lgan tirik kishilar tarzida qabul qilinadi. Bunday qabul qilinishiga obrazlarning noan'anaviy migratsion xarakterda ekanligi ham katta sabab bo'la oladi. O'zbek nasrida yozuvchining bir qator asarlari davomida yagona geografik lokatsiyani markaziy badiiy makon sifatida tanlashi hamda syujet chiziqlarini aynan shu hudud atrofida rivojlantirishi nisbatan kam uchraydigan hodisadir. Biroq ayrim adiblar ijodida o'zi tug'ilib o'sgan lokatsiyani – avtobiografik makonni tizimli ravishda badiiy obyektga aylantirish tamoyili ko'zga tashlanadi. Xususan, Turob To'la asarlarida Turbat qishlog'i, Nazar Eshonqul prozasida Tersota qishlog'i, Abduqayum Yo'ldosh hikoyalarida esa O'zbekovul qishlog'i tayanch badiiy xronotop vazifasini bajaradi. Bu holat, bir tomondan, muallif biografiyasi va ruhiy-xotira qatlami bilan uzviy bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, adibning individual badiiy olami hamda lokal (hududiy) reallikni kashf etish mahoratidan dalolat beradi.

Adib nasrida badiiy makonning yaxlit xarakterga ega bo'lishi va qahramonlar tizimida sayyor obrazlar yetakchilik qilishiga qaramay, asarlarda shablonlilik yoki badiiy siyqalik ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, yozuvchi har bir yangi syujet chizig'ida bitta makon va turg'un obrazlar imkoniyatidan foydalangan holda, mutlaqo yangi psixologik kolliziyalar hamda g'oyaviy-estetik qatlamlarni kashf etish mahoratini namoyon etadi. Chunki har bir obrazga yondashuv har qaysi asarda o'z individial qiyofasiga egadir. Kengsoy, ya'ni 41-sovxo Luqmon Bo'rixon yaratgan obraz va personajlar uchun umumiy universal makon. O'qirman ayni shu jihatdan ham muallifning asarlari mutolaasi davomida tasvirlanayotgan joyni o'zi avval tashrif buyurgan joy deb tasavvur qila oladi, obrazlarni esa xuddi eski tanishini uchratganday qabul qiladi. Luqmon Bo'rixon asarlarining katta qismi, janridan qat'i nazar umumiy xronotop – zamon va makon uyg'unligiga ega. Asarlarni makon umumiyliги kesimida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, zamonning ham obrazlarga ta'sirini kuzatamiz, ya'ni biror obraz boshqa asarga ko'chgan bo'lsa, uning yoshi, mavqei, hatto jamiyatda tutgan o'rnining ham o'zgarganini ko'ramiz.

**Xulosa.** Luqmon Bo'rixon nasriy merosining poetik qurilishini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, adib yaratgan badiiy olamda yagona va unifikatsiyalashgan xronotopik tizim yetakchi o'rin tutadi. Yozuvchi turli janrdagi asarlarida Kengsoy qishlog'i yoki 41-sovxo kabi muayyan lokatsiyalardan tayanch badiiy makon sifatida unumli foydalanadi. E'tiborlisi, makon va obrazlarning migratsion xakteri saqlangan holda, badiiy matnda sxematizm yoki siyqalik ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, vaqt (zamon) omilining qahramonlar evolyutsiyasiga ko'rsatgan dinamik ta'siri natijasida bir asardan ikkinchisiga o'tgan sayyor obrazlarning yoshi, ijtimoiy statusi hamda ruhiy-psixologik holatida davr talabiga mos evrilishlar yuz beradi. Bu esa

yo'zuvchining o'ziga xos badiiy-falsafiy konsepsiyasi va o'zbek adabiyotida badiiy makon va psixologizm uyg'unligini tasvirlashdagi yuksak mahoratidan dalolat beradi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. U. Jo'raqulov. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2015. 136- 137- betlar.
2. L. Bo'rixon. Cho'ldan kelgan tashvish //Sharq Yulduzi jurnali 2020. №3. 8-bet
3. L. Bo'rixon. Quyosh hali botmagan. – T.: O'zbekiston NMIU, 2015. 355-bet.
4. L. Bo'rixon Jaziramadagi odamlar. – T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot, 2012. 8-bet.
5. L. Bo'rixon. Titrayotgan tog'. – T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot, 2018. 204-205-bet.

### THESIS INFORMATION IN OTHER LANGUAGES

#### РУССКИЙ

**Аннотация.** В данной статье исследуются художественный хронотоп и поэтика пространства в произведениях известного представителя современной узбекской прозы Лукмона Бурихона. В работе анализируются композиционные и идейно-эстетические функции села Кенгсой и территории 41-го совхоза как единого опорного художественного топоса в романах, повестях и рассказах писателя.

**Ключевые слова:** проза Лукмона Бурихона, художественный хронотоп, поэтика пространства, топос Кенгсой, 41-й совхоз, странствующие образы, миграция персонажей, пейзаж, интерьер, художественный психологизм.

#### ENGLISH

**Abstract.** This article examines the artistic chronotope and spatial poetics in the works of Luqmon Bo'rixon, a prominent representative of modern Uzbek prose. The study analyzes the compositional, ideological, and aesthetic functions of Kengsoy village and the 41st state farm territory as a unified core artistic topos in the author's novels, novellas, and short stories.

**Keywords:** prose of Luqmon Bo'rixon, artistic chronotope, spatial poetics, Kengsoy topos, 41st state farm, migratory characters, character migration, landscape, interior, artistic psychology.